

OVQAT HAZM QILISH JARAYONLARIGA VA MAHSULDORLIGIGA «PROBIOKORM» PROBIOTIKLI OZUQA QO‘SHIMCHASINING TA’SIRI

**Karimjonova Shohida Sohibjon qizi
Andijon Davlat Universiteti magistranti
Tashbayev Sherzodbek Abdurasulovich
Andijon Davlat Universiteti Zoologiya va Biokimyo kafedrası (PhD)**

Hozirgi vaqtda qishloq xo‘jaligi, chorvachilik va veterinariya sohalarida biotexnologik sanoatning ajoyib maxsuloti – fermentli preparatlardan foydalanib qo‘shimcha go‘sh va sut yetishtirish mumkin. Ratsion tarkibiga qo‘shilgan ferment preparatlari tirik organizmga, ayniqsa ular ancha yosh bo‘lganda, ozuqa moddalarining yaxshi hazm bo‘lishida yordam beradi. Tadqiqotlar uchun hayvonlarni ovqat hazm qilishini yaxshilovchi, bakterial ichak kasalliklarini oldini oluvchi va davolovchi, ozuqaning energetik qiymatini, samaradorligini hamda ularning mahsulдорligini oshiruvchi mahalliy mikroorganizmlar asosida yaratilgan probiotikli, fermentli va oqsilga boy, import o‘rnini bosuvchi mahalliy ozuqa yem qo‘shimchasi tanlab olindi.

Uning tarkibida 10 dan ziyed probiotik bakteriyalar mavjud bo‘lib, ular *Lactobacillus plantarum*; *Lactobacillus paraplantarum*; *Bifidobacterium*, *Propionibacterium* avlodlariga mansub bakteriyalar. Oshqozon-ichak tizimidagi mikroflorani tartibga solish uchun ishlatiladigan biopreparatlar probiotiklar deb ataladi. Sut achituvchi bakteriyalarida hujayradan tashqari proteolitik, b-glyukozidaza, b- mannozidaza va b-mannaza sintez qilishi aniqlangan. *Lactobacillus plantarum* 7 shtammining xo‘jayradan tashqari proteolitik, syellyulolitik va gemisellyulolitik faolligi aniqlangan. *Lactobacillus plantarum* shtamlari universal ko‘p xujayradan tashqari gidrolitik ferment xosil qiladi. Xo‘jayradan tashqari gidrolitik ferment faolliginig eng yuqori umumiy ko‘rsatkichi *L. plantarum* RI11 *L. plantarum* RG11 va *L. plantarum* RG14 qaytd etildi [1].

Tadqiqotda turli xil tabiiy polilimerlarning *Lactobacillus plantarum* RI 11 izolyatining xujayradan tashqari syellyulolitik va gemisellyulozalitik fermentlarning sintezi bo‘yicha izlanishlar olib borilgan. Ushbu ilmiy sharhda sut achituvchi bakteriyalarni biologik qayta ishlash jarayonlarida qo‘llash istiqbollari tavsiflangan [2]. Probiotiklardagi bakterial hujayralar ovqat hazm qilish traktidagi ko‘plab hayotiy jarayonlarning biokatalizatorlaridir [3]. Bu probiotiklar yordamida chandiқ mikroflorasining tur tarkibini tuzatish orqali poligastrik hayvonlarning mahsulдорligini oshirish va yuqumli bo‘lmagan patologiyalarning oldini olish yo‘llarini ishlab chiqish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qildi [4].

So‘nggi yillarda chandiқ mikroflorasining sonini tiklash va sifat tarkibini yaxshilash uchun keng spektrli ko‘plab vositalar yaratildi. Probiotiklar patogen va shartli patogen mikrofloraga qarshi antagonistik faollikka ega bo‘lgan patogen bo‘lmagan bakteriyalarni o‘z ichiga oladi. Probiotiklar sifatida ishlatiladigan bakteriyalar asosan grammusbat bo‘lib, ular tarkibiga *Bacillus*, *Pediococcus*, *Enterococcus*, *Streptococcus*, *Saccharomyces* i *Lactobacillus* kirishi mumkin. Probiotiklar asosida qoramollarni yetishtirish o‘rtacha kunlik daromadning oshirishi haqida ma‘lumotlar berilgan; ammo, probiotiklarning o‘shishga ta’siri izchil emas edi. Probiotiklarning qorin mikrobiomiga ta’siri ishlatiladigan bakterial shtammlarga, shuningdek dozaga bog‘liqdir. Asosiy bo‘limlar: kavsh qaytaruvchi hayvonlarning mikrobiota tavsifi, zamonaviy usullarning asosiy tamoyillari, bu usullardan foydalanish, qo‘y qorinlari

mikrobiomini o‘rganish natijalari. Stressning qorin mikrobiotasiga ta’siri va uni adaptogen, antioksidant biologik faol moddalar va probiyotiklar yordamida himoya qilish usullari haqidagi ma’lumotlar tahlil qilingan.

Hozirgi vaqtda quyunchilik sohasida quyonlarni ko‘paytirish va ularni parvarish qilish oziqlantirish masalalari borasida kўplab tadqiqotlar olib borilmoqda. Quyonlarni oziqlantirishda har xil ozuqa qo‘shimchalarini qo‘llash va ularni ovqat hazm qilish tizimiga ta’siri yetarlicha o‘rganilmagan. Shuning uchun quyonlar organizmiga mahalliy «Probiokorm» probiotikli ozuqa qo‘shimchasining ta’sirini aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar olib borishni maqsad qildik. Yosh quyonlarning eng ko‘p halok bo‘ladigan davri ularni sutdan ajratiladigan davrga to‘g‘ri keladi. Bu vaqtda yosh quyonchalarning tanasi qattiq stressga uchraydi, infeksiya xavfi ortadi, buning natijasida o‘shish tezligi pasayadi. Bu davrda eng ko‘p uchraydigan kasalliklar oshqozon-ichak trakti kasalliklari. So‘nggi paytlarda ushbu muammoni hal qilish uchun organizmdagi metabolik jarayonlarni optimallashtirish, shuningdek, oshqozon-ichak trakti kasalliklarini davolash va oldini olish va normal ichak mikroflorasini tiklash qobiliyatiga ega bo‘lgan probiotik ozuqa qo‘shimchalaridan foydalanish tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Hayvonlarning ozuqasidagi antibiotiklar ularning nobud bo‘lishiga va sonining kamayishiga olib keladi [5-6].

Aholini sifatli chorvachilik mahsulotlari bilan ta’minlash muammosidan kelib chiqib, probiotiklardan foydalanish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Qishloq xo‘jaligi hayvonlari organizmiga turli probiotiklarni qo‘llash keng o‘rganilgan, ammo quyunchilik sanoatida probiotik ozuqa qo‘shimchasi «Probiokorm»dan foydalanish hali o‘rganilmagan. Tadqiqot usullari: Tadqiqotlarda umumiy qabul qilingan klinik, morfologik, anatomik, zootexnikaviy, statistik va taqqoslash usullaridan foydalaniladi. Tajribada chetdan olib kelingan “Hikol” zotiga mansub quyonlardan olingan mahalliyashtirilgan 3 oylik yoshdagi quyonchalarga 130 kunlik yoshiga qadar Probiokorm probiotikli preparat ta’siri aniqlandi. Quyon bolalarining yashovchanligiga, o‘shish va rivojlanishiga tasiri. Tajriba guruxiga 10 bosh quyonlar, nazorat guruxiga 10 bosh quyonlar olindi. Tajriba guruxidagi “Hikol” zotli 10 bosh quyon bolalariga 1kg yemiga 2g ProBioKorm aralashtirib berildi. Tajriba quyon bolalari so‘ndirilgan oxak va formalinning 5 % eritmasi bilan sterillangan maxsus kataklarda bino harorati 15-18°S va 60-65% gacha nisbiy namlikda sun‘iy yorug‘lik sharoitida saqlandi. Tajribadagi ikkala gurux quyon bolalariga maxsus ular uchun tayyorlangan granula shaklidagi omuxta ozuqa berildi. Oziqlantirish bir xil rasion asosida amalga oshirildi. Tajriba guruxidagi “Hikol” zotli 10 bosh quyon bolalari ozuqa rasioniga ProBioKorm aralashtirib berildi.

Nazoratdagi quyon bolalari ProBioKorm probiotikli preparati qo‘shilmagan yem bilan oziqlantirildi. Tajribadagi quyon bolalarini ProBioKorm ozuqa qo‘shimchasi berilmasdan oldin va berilgandan keyin 105 kunlik yoshida periferik qonning morfologik tarkibi (eritrositlar, leykositlar, trombositlar, gemoglobin darajasi), biokimyoviy parametrlari (umumiy oqsil darajasi, mochevina, kreatin, umumiy bilirubin, glyukoza, xolesterin va trigliseridlar), ayrim qon zardobi fermentlarining faoliyati (aspartat va alanin aminotransferaza, gidroksidi fosfataza, laktat dehidrogenaza) aniklandi.

Quyonlarning klinik tekshiruvlari standart usullarga muvofiq VS-3000 (Mindray, P.R.China) yarim avtomatik gematologiya analizatorida o‘tkazildi. Qon zardobining biokimyoviy parametrlari birlashtirilgan usullar bilan aniqlandi: aspartat aminotransferaza (AST) va alanin aminotransferaza (ALT) - Raytman-Frankel usulida, gidroksidi fosfataza - nitrofenil fosfat bilan birlashgan usul bilan (Belgiyada CYPRESS Diagnostics) aniqlandi.

(BA-88 A analizatori (Mindray, P.R.China). Qonning batafsil tahliliga ko‘ra gemoglobin, eritrositlar, trombositlar, leykositlar va boshqa gematologik parametrlarning tarkibi o‘rganildi. 130 kunlik yoshiga qadar tajribada ProBioKorm preparatining yosh o‘svuchi quyon organizimiga ta’siri o‘rganildi. Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, hayvonlarning jun to‘qimalari mayin bo‘lishi, ozuqani ishtaxa bilan yeyishi va harakatchanlik faoliyatini saqlab qolishi aniqlandi. ProBioKorm probiotik preparati berilgan tajriba guruhi quyon bolalarining qon tarkibidagi eritrositlar, leykositlar, trombositlar va gemoglobin miqdori statistik jihatdan sezilarli darajada farqlanmagan nazorat guruhiga nisbatan katta farq qilmadi va fiziologik normada bo‘ldi. ProBioKorm preparatini qo‘llash qon zardobida gemoglobin, eritrositlar miqdori bir oz oshganligini aniqlanib fiziologik me’yorda darajasida bo‘lganligini ko‘rsatdi, bu qon tarkibidagi shaklli elementlarnig tashkil qiluvchi funksiyaning barqarorligini ko‘rsatadi. Qon tarkibidagi leykositlar miqdori tajriba boshlanishida va 120-kunlik yoshida guruhlar o‘rtasidagi farqlar o‘rganildi. Barcha o‘rganilayotgan davrda yadro shakllarining umumiy neytrofil soni fiziologik me’yorning quyi chegaralarida bo‘lganligi aniqlandi. ProBioKorm preparati biostimulyator ta’sirida tananing mudofaa mexanizmlari faoliyati kuchayganligini ko‘rsatadi. Tajriba davomida barcha neytrofillar shakllari yig‘indisi fiziologik normaning pastki doirasida bo‘ldi. Tajriba guruhida ProBioKorm preparatini qo‘llashdan bir oy o‘tgach, bazal sharoitlarda FP ning sezilarli o‘sishi nazorat guruxiga nisbatan bir barobarga oshdi, bu ko‘rsatkichlar ularning organizmida qon neytrofillarining assimilyasiya jarayonini faollashganidan darak beradi. Tajriba guruhlari hayvonlarning qon tarkibida fagositarlik indeks qiymatlari bazal darajasidan bir oz oshib 120-kunlik yoshiga kelib tajriba guruhdagi quyonlarda qon tarkibining shaklli elementlari sezilarli darajada o‘zgardi. I-jadval ProBioKorm preparatining quyonlar rivojlanishiga va tana massasiga ta’siri (tirik vazni, g.) Tajriba guruxlari 90-kunlik yoshda 100-kunlik yoshida 110-kunlik yoshida nazorat 2200 g 2320 g 2500 g tajriba 2500 g 3080 g 3420 g ProBioKorm preparatini qo‘llash 10 kundan boshlab hayvonlarning o‘sishini tezlashtirdi, ularning umumiy fiziologik ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir qildi. Quyonlarning tana vaznini oshishiga olib keldi. Nazoratda quyonlar 100 kunligida tajriba guruhidagi quyonlarga nisbatan 580 g ga, 110 kunlik yoshiga kelib 920 g-ga, butun tajriba davomida nazorat guruhiga nisbatan tajriba guruhi quyonlari 1,5 kkgacha ortiqcha vazn to‘plashiga erishildi. Xulosa qilib aytish mumkinki, barcha guruhdagi quyonlarning butun tajriba davomida o‘sishi yuqori bo‘lib, ayniqsa tajriba guruhi quyon bolalarining ProBioKorm preparati kunlik o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Tadqiqotlarimizda o‘svudagi quyonchalarni o‘rtacha tirik vazni o‘sishini o‘zga tadqiqotchilar tajribalari bilan taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, quyonchalarni turli o‘shish va jadal boqish davrlari bo‘yicha o‘rtacha tirik vazni o‘zga tadqiqotchilar natijalariga mos keldi. Tadqiqotlar davomida quyonlarda hech qanday kasallik va o‘lim holatlari kuzatilmadi. Ushbu mahalliy probiotik oziqa qo‘shimcha chorvachilik sohasida qishloq xo‘jaligi hayvonlarini mahsuldorligini oshirishda, antibiotik o‘rnida zararsiz vosita sifatida, immunitetni rag‘batlantiruvchi samarador biopreparat sifatida qo‘llash imkoniyatlariga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fu Haw Lee, Suet Ying Wan, Hooi Ling Foo, Teck Chwen Loh, Rosfarizan Mohamad, Raha Abdul Rahim and Zulkifli Idrus. Comparative Study of Extracellular Proteolytic Cellulolytic and Hemicellulolytic Enzyme Activities and Biotransformation of Palm Kernel Cake Biomass by Lactic Acid Bacteria Isolated from Malaysian Foods 3. Journal List Int J Mol Sci Int J Mol Sci. 2019 Oct; 20(20): 4979

2. Nursyafiqah A. Mohamad Zabidi, Hooi Ling Foo, Teck Chwen Loh, Rosfarizan Mohamad and Raha Abdul Rahim Enhancement of Versatile Extracellular Cellulolytic and Hemicellulolytic Enzyme Productions by *Lactobacillus plantarum* RI 11 Isolated from Malaysian Food Using Renewable Natural Polymers *Journal List Molecules*. 2020; 25(11): 2607. ISSN: 2181-3337 |
3. Loredana Tarraran, Roberto Mazzoli Alternative strategies for lignocellulose fermentation through lactic acid bacteria: the state of the art and perspectives *Review FEMS Microbiol Lett* 2018. №365(15).
4. Nozdrin G.A., Ivanova A.B., Nozdrin A.G. Teoreticheskiye i prakticheskiye osnovy primeneniya probiotikov na osnove basill v veterinarii // *Vestnik NGAU*. – 2011. – T. 21. – № 5. – S. 87-95.
5. Mironova I.V., Kosilov V.I. Perevarimost korovami osnovnykh pitatelnykh veshchestv rasionov korov cherno-pestroy porody pri ispolzovanii v kormlenii probioticheskoy dobavki Vetosporin-aktiv// *Izvestiya Orenburgskogo gosudarstvennogo agrarnogo universiteta*. – 2015.
6. Cheng G., Hao H., Xie S., Wang X., Dai M., Huang L. and Yuan Z. Antibiotic alternatives: the substitution of antibiotics in animal husbandry // *Front. Microbiol.*, - 2014. -№5. -R. 69- 83.